

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-jou kommunal xo'jaligi vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va tarkibiga kiruvchi muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi muhim samaradorlik ko'rsatkichlari

1. Qurilish va uy-jou kommunal xo'jaligi vazirligiuning hududiy boshqarmalari va tarkibiga kiruvchi muassasalarining (keyingi o'rinlarda – vazirlik tizimi) faoliyatida korrupsiyaga qarshi samarali kurashni ta'minlash uchun muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (keyingi o'rinlarda – MSK) shakllantirilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

vazirlik tizimidagi rahbarlar va ularning o'rinbosarlarining muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (keyingi o'rinlarda – rahbariyatning MSK) (1-ilovaga muvofiq);

Vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari va mas'ullarning muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (keyingi o'rinlarda – Nazorat tuzilmalarining MSK) (2-ilovaga muvofiq);

vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha faoliyatining muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (keyingi o'rinlarda – vazirlik tizimining MSK) (3-ilovaga muvofiq).

2. Vazirlik tizimida rahbariyatning MSK va tizimning MSK bajarilishiga doir ma'lumotlarni yig'ish uchun Nazorat tuzilmalari javobgar hisoblanadi.

3. Nazorat tuzilmalarining MSK bajarilishiga oid ma'lumotlarni yig'ish uchun ijro va mehnat intizomini nazorat qiluvchi tuzilmalar mas'ul hisoblanadi. MSKni bajarish natijalari vazirlik tizimi rahbarlariga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

4. Nazorat tuzilmalari vazirlik tizimi bo'yicha olingan ma'lumotlarni birlashtirib, har yili 1-fevralgacha MSKga erishish natijalarini vazirlik rahbariga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi namunaviy muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga
1-ilova

Vazirlik tizimidagi rahbarlar va ularning o'rinbosarlarining muhim samaradorlik ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkich	Qo'llanilishi			Bajarilganlik uchun ballar	Ko'rsatkich indikatori
		Vazirlik rahbarlari, ularning o'rinbosarlari	Vazirlik tizimidagi rahbarlar va ularning o'rinbosarlari	Markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari rahbarlari		
1.	Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tasdiqlangan dastur/yo'l xaritasining bajarilishi	Ha	Ha	Ha	1 ball – rejadagi ishlarning 90% dan ortig'i bajarilgan; 0,5 ball – rejaninn 70% dan 90% gachasi bajarilgan; 0 ball – 0 % dan 70 % gacha bajarilgan	Hisobotlarga asosan
2.	Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ichki va tashqi kommunikatsiyalar soni	Ha	Ha	Ha	1 ball – 3 tadan ortiq kommunikatsiya; 0,5 ball – 1 tadan 3 tagacha kommunikatsiya; 0 ball – 0 ta kommunikatsiya	OAV, ichki uchrashuvlar bayonnomalari monitoringi, rasmiy veb-saytlar tahlili asosida

3.	Xatarlarning muntazam baholanishida ishtirok etish (xatarlarni aniqlash va ularni minimallashtirish bo'yicha takliflar)	-	Ha	Ha	1 ball	Ichki hujjat almashishi, xatarlar matritsasi tahlili asosida
4.	Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan xavf-xatari bor funksiyalar va tartib-taomillari monitoringi natijalariga ko'ra korrupsiyaga qarshi talablarga rioya qilinishi	Ha	Ha	Ha	1 ball – 100 % holatda; 0,5 ball – 50% dan 70% gacha bo'lgan holatlarda; 0 ball – 0 % dan 50% gacha bo'lgan holatlarda	Aloqa kanallariga kelib tushgan murojaatlar reestri tahlili asosida, o'tkazilgan tekshiruvlar/monitoring natijalari va h.k. asosida
5.	Xodimlarning korrupsiyaga qarshi reja asosida va rejadan tashqari o'qitilishi	Ha	Ha	Ha	1 ball – xodimlarning 100% qamrab olinganda; 0,5 ball – xodimlarning 90% dan 99% gachasi qamrab olinganda. 0 ball – xodimlarning 0% dan 90% qamrab olinganda	O'tkazilgan treninglar materiallari, tashrif varaqlari va h.k asosida.
6.	Bevosita bo'ysunuvdagi xodimlar tomonidan sodir etilgan aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga o'z vaqtida va tegishlicha javob qaytarish	Ha	Ha	-	1 ball – 100 % holatda; 0,5 ball – 50% dan 70% holatda; 0 ball – 0 % dan 50% gacha bo'lgan holatlarda	Aloqa kanallariga qilingan murojaatlar reestri tahlili asosida, o'tkazilgan tekshiruvlar/monitoring natijalari va h.k.

Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga
2-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-jou kommunal xo'jaligi vazirligimarkaziy apparati Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlarining muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash
TIZIMI**

T/r	Ko'rsatkich	Qo'llanilishi		Ballar	Ijro nazorati
		Boshqarma xodimlari/ vazirlik tarkibidagi muassasalar mas'ul xodimlari	Hududiy boshqarmalardagi xodimlar		
1	Vazirlik tizimi faoliyati, qonunchilik, xatarlarni qayta baholashning o'ziga xos jihatlari o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan korrupsiyaga qarshi siyosat, odob-axloq qoidalari va vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlarining o'z vaqtida yangilanishi.	Ha	-	Ko'rsatkichni bajargani uchun 1 ball	Vazir va vazirlik hay'atiga taqdim etiladigan choraklik hisobotlar asosida
2	Korrupsiyaga qarshi tizimning barcha unsurlarini o'z ichiga olgan vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha yillik tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	Ha	-	Ko'rsatkichni bajargani uchun 1 ball	Tegishli yil uchun tasdiqlangan tadbirlar rejasini
3	Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi	Ha	Ha	Ko'rsatkichni	Vazir va vazirlik

	kurashga doir yillik tadbirlar rejasi hamda korrupsiyaga qarshi kurash Davlat Dasturining tegishli qismlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish.			bajargani uchun 1 ball	hay'atiga taqdim etiladigan choraklik hisobotlar asosida
4	Belgilangan davriylikka muvofiq vazirlik tizimida xavf-xatarlarni baholashni muvofiqlashtirish va amalga oshirish (xatarlarni belgilash va ularni minimallashtirishga doir takliflar).	Ha	Ha	Ko'rsatkichni bajargani uchun 1 ball	Ichki yozishmalar, xatarlar matritsasi tahlili asosida
5	Vazirlik tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar bilan bog'liq o'zgarishlar bilan o'z vaqtida tanishtirish, shuningdek ularni korrupsiyaga qarshi o'qitish.	Ha	Ha	100% – 1 ball; 70% – 99 % – 0,5 ball; 0% – 69% – 0 ball.	Tanishtiruv varaqlari, elektron tizimda o'qigani to'g'risidagi qaydlar/tashrif varaqlari va h.k.lar
6.	Korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo'yicha ichki va tashqi aloqalarni amalga oshirish.	Ha	Ha	1 ball – 7 tadan ortiq kommunikatsiya; 0,5 ball – 1 dan 7 tagacha kommunikatsiya; 0 ball - 0 ta kommunikatsiya.	OAV, ichki uchrashuvlar bayonnomalari monitoringi, vazirlik tizimining veb-saytlari, xodimlarga yuborilgan ichki jo'natmalar tahlili

7.	Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring qilish.	Ha	Ha	1 ball – 4 tadan ortiq tekshiruv; 0,5 ball – 1 tadan 4 tagacha tekshiruv; 0 ball – 0 ta tekshiruv.	Vazir va vazirlik hay'atiga taqdim etiladigan choraklik hisobotlar asosida
8.	Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy qoidabuzarliklarga oid xabarlar mavjud emasligi va/yoki o'z vaqtida tekshiruv/tahlil va ta'sir choralari ko'rilmaganligi	Ha	Ha	Ko'rsatkichni bajargani uchun 1 ball	Aloqa kanallariga kelib tushgan murojaatlar, choraklik hisobotlar, o'tkazilgan tekshiruvlar bazasi tahlili
9.	Kamchiliklarni bartaraf etish, bu boradagi siyosat va tartib-taomillarni takomillashtirish, shuningdek monitoring, tekshiruvlar, xizmat tekshiruvlari va h.k.lar natijalari asosida aniqlangan qoidabuzarliklar bo'yicha aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish choralari o'z vaqtida amalga oshirish.	Ha	Ha	Ko'rsatkichni bajargani uchun 1 ball	Aloqa kanallariga kelib tushgan murojaatlar reestri tahlili, choraklik hisobotlar, o'tkazilgan xizmat tekshiruvlar bazasi tahlili

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga
3-ilova

Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi faoliyatining muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash
TIZIMI

№	Ko'rsatkich	Qo'llanilishi			O'lchov birligi	Ko'rsatkichlarni baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichi	Axborotni taqdim etish uchun mas'ul tarkibiy bo'linmalar
		Tashkilot	Hududiy tarkibiy bo'linmalar	Tarkibiy bo'linmalar				
1.	Korrupsiyaga qarshi kurashga doir dastur/yo'l xaritasini o'z vaqtida va to'liq bajarish.	Ha	Ha	Ha	%	Dasturni bajarish natijalari bo'yicha baholanadi: 90% va undan ortiq – 1 ball; 70% – 89%– 0,5 ball; 0% – 69% – 0 ball	0 ball-1 ball	Dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlar uchun mas'ul ijrochilar
2.	Korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar beruvchi samarali kanallar mavjudligi	Ha	Ha	Ha	%	Aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiyaviy harakatlarga doir tasdiqlangan xabarlar foizidan kelib chiqib baholanadi: 40% va undan ortiq – 1 ball; 15% – 39%–0,5 ball; 0% – 14%–0 ball.	0 ball-1 ball	Korrupsiyaviy harakatlarga doir aloqa kanallari operatorlari

3.	Korrupsiyaviy xatarlarni baholashda ishtirok etish (korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash va ularni minimallashtirishga doir takliflar).	Ha	Ha	Ha	%	Ko'rsatkich bajarilgani uchun 1 ball (100%), bajarilmagani uchun – 0 ball.	0 ball-1 ball	Korrupsiyaviy xatarlarni baholash bo'yicha ishchi guruh
4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limini korrupsiyaga oid masalalar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish ko'rsatkichi		Ha	Ha	%	Xodimlar o'rtasida korrupsiyaga oid masalalar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish natijalarini baholash: 100% – 1 ball; 50% – 99% – 0,5ball; 0% – 49% – 0 ball.	0 ball-1 ball	Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul xodimlar
5.	Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha choralar qabul qilish ko'rsatkichi.	Ha	Ha	Ha	%	Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzasidan choralar ko'rilganligi bo'yicha baholanadi: 90% va undan ortiq – 1 ball; 70% – 89% – 0,5 ball 0% – 69% – 0 ball.	0 ball-1 ball	Xodimning bevosita rahbari/Odob-axloq komissiyasi
6.	Korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo'yicha, jumladan OAV va boshqa tashki va ichki manbalarda media-rejani bajarish ko'rsatkichi	Ha	Ha	Ha	%	Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha media rejani bajarish: 90% va undan ortiq – 1 ball; 70% – 89% – 0,5 ball; 0% – 69% – 0 ball.	0 ball-1 ball	Matbuot xizmatlari, Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul xodimlar

7.	Davlat xaridlari ishtirokchilari va kontragentlar bilan tuzilgan shartnomalarda korrupsiyaga qarshi eslatmalarni kiritish bo'yicha qoidalarga rioya qilish ko'rsatkichi (belgilangan ichki hujjatlar asosida)	Ha	Ha	Ha	%	Korrupsiyaga qarshi eslatmalarni o'z ichiga olgan bitimlar natijalari bo'yicha baholanadi: 90% va undan ortiq – 1 ball; 70% – 90% – 0,5 ball; 0% – 69% – 0 ball.	0 ball-1 ball	Moddiy-texnik ta'minot uchun mas'ul bo'lgan bo'limlar, yuridik xizmat
8.	Xatar funksiyalari va tartib-taomillari monitoringi natijalari bo'yicha tashkilot tizimi xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash talablariga rioya qilish	Ha	Ha	Ha	%	1 ball – 100 % holatda; 0,5 ball – 50% dan 70% gacha bo'lgan holatlarda; 0 ball – 0 % dan 50% gacha bo'lgan holatlarda	0 ball-1 ball	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi/ Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul xodimlar